

**SHARQ MINIATYURA SAN’ATI USTALARI**

***Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi***

***Andijon davlat pedagogika instituti***

***“Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi”***

***yo’nalishi talabasi***

**Annotatsiya:** Ushbu maqola sharq miniatyura san’atida ijod qilgan bir nechta san’at ustalari haqida keng ma’lumotlar bayon etadi va ularning ijod va hayot yo’li bilan yaqindan tanishtiradi.

**Kalit so’zlar:** Miniatyura, Kamoliddin Behzod, Muhammad Nodir Samarqandiy, Mir Said Ali Termiziy, san’at, ijod.

**Kamoliddin Behzod-Miniatyura san’atining beqiyos ustasi Kamoliddin Behzod** taxminan 1455- yili Hirot shahrida tug‘ilgan. Bu davrda ilmu-fan, me’morchilik, amaliy san’at, kitobat san’ati, xattotlik san’ati buyuk Sohibqiron A.Temur va uning suyukli nabirasi M.Ulug‘bek sa’yi-harakatlari bilan Samarqandda ancha rivojlangan edi. K.Behzod tug‘ilgan Hirot shahri ham Temuriylar tasarrufida bo‘lib, bu yerda ham bunyodkorlik ishlari saroyda bosh vazir bo‘lib ishlayotgan A.Navoiy e’tiborida edi. Ota-onasidan juda erta ayrilgan K.Behzodni mashhur musavvir Mirak Naqqosh tarbiyasiga olib, “Nigoriston” maktabi (o’sha davrdagi San’at Akademiyasi)da saboq beradi.

K.Behzodning dastlabki ijodi shoиру-ulamolar, san’atkorlar homiysi A.Navoioyning diqqat-e’tiboriga sazovor bo‘ldi. San’atga, go‘zallikka shaydo bo‘lgan rassom tez orada mashhurlikka erishdi. U o’sha davrdagi mashhur olimlar, shoirlar, xattotlar bilan muloqotda bo‘ldi, bu esa rassom dunyoqarashining yanada shakllanishiga asos bo‘ldi. Shundan so‘ng podsho Husayn Boyqaro A.Navoioyning tavsiyasi bilan uni saroya chaqirib olib, barcha kerakli shart-sharoitlarni yaratib berdi. 1487- yilda K.Behzod Hirotdagi saltanat kutubxonasining boshlig‘i etib tayinlandi.

1506 -yilda Husayn Boyqaro vafotidan so‘ng taxt SHayboniyxon qo‘liga o‘tdi. SHayboniyxon ham Behzod ijodiga hurmatda bo‘lib, unga shart-sharoit yaratib berdi. 1512 -yilda shoh Ismoil Safaviy bir nechta rassomlar bilan birga K.Behzodni ham Hirotdan Tabrizga olib ketdi. Bu erda K.Behzod Tabriz miniatyura maktabiga asos soldi. Behzod asarlarnining ko‘p qismini Tabrizda yaratdi. Erondagi jangu-jadallar, alg‘ov-dalg‘ov zamon va ur-yiqitlar, musavvirning o‘z yurtidan, do‘stlaridan uzoqda yashashi uning hayoti va ijodiga qattiq ta’sir ko‘rsatdi. Lekin, nafosat va go‘zallik olamiga, tabiat va insonga bo‘lgan kuchli munosabati uni mudom ijod sari yetakladi.

Kamoliddin Behzodning noyob qobiliyati uning portret janrida yaratgan asarlarida yaqqol seziladi. Rassomning “Husayn Boyqaro”, “Shayboniyxon” portretlari mahorat bilan ishlangan suratlardan hisoblanadi. Sulton Husayn Boyqaro shohlarga xos qiyofada, salobat bilan cho’kkalab o’tirgan holatda tasvirlangan. Shayboniyxon esa, hukmdor sifatidagina emas, she’riyatga oshno, shoir tabiat qilib tasvirlangan.

Kamoliddin Behzodning mashhur asarlaridan biri “Samarqanddagi masjid qurilishi” deb ataladi. Bu asar Nizomiyning “Xamsa”siga ishlangan bo‘lib, hozirda London milliy kutubxonasida saqlanadi. Unda yirik masjid qurilishi aks ettirilgan. Surat bizga xalqimiz tarixi, uning turmush tarzi, mehnati, kiyimlari, qurilish ashyolari, binolar tuzilishi haqida ma’lumotlar beradi. Behzod salkam bir asr hayot kechirdi. Kamoliddin Behzod ijodini Sharq va G‘arbda birday yuksak baholaydilar.

**Muhammad Nodir Samarqandiy-** O‘zining noyob iqtidori bilan Samarqandda, Hindistonda, Yevropada nom qozongan buyuk miniatyurachi rassom Muhammad Nodir Samarqandiy hamyurtimiz Boburiylar sulolasiga xizmat qilib, ularning hurmat-e’tiboriga sazovor bo‘lgan bo‘lsa-da, asli Samarqand shahri farzandidir. U Akbarshoh (1569-1605), Shoh Jahongir (1605-1628), Shoh Jahon (1628-1658) humronlik qilgan davrlarda saroy devonida xizmat qildi va o‘lmas asarlar yaratdi. Muhammmad Nodir Samarqandiy 1570-yilda Samarqand shahrida tug‘ilgan. Dastlab Samarqand madrasalarida xattotlik bo‘yicha savod chiqardi. Ma’lumki, Temur va temuriylar davrida ko‘plab me’morlar, ustalar, musavvirlar dunyoning ko‘pgina mamlakatlaridan kelib, shu yerda ijod qilgan va yashab qolgan edilar. Miniatyura bo‘yicha Samarqand maktabi mavjud bo‘lib, madrasalarda xattotlik, kitobat san’ati bo‘yicha bilimlar chuqur o‘rgatilar edi. Bo‘lajak miniatyurachi rassomlar nodir qo‘lyozmalarni Samarqandning mashhur qog‘ozlariga bezakli qilib ishlar edilar.

Yosh bo‘lishiga qaramay, miniatyura sohasida tanilgan Muhammad Nodir ijodi bilan Boburiylar sulolasi bo‘lgan Akbarshoh qiziqib qoladi. 1590-yilda elchilar bilan Hindistonga kelgan rassom shu erda umrining oxirigacha yashab ijod qildi. Muhammad Nodir 1605- yilda Shoh Jahongir portretini chizib, portretchi sifatida o‘zining iqtidorini namoyon etdi.U bir qancha nodir qo‘lyozmalarga miniatyura asarlarini muvaffaqiyatli bajargan bo‘lsa-da, portretchi sifatida bajargan ishlari bo‘yicha dong taratdi. Uning hozirgi paytda Britaniya Muzeyining Qadimgi Sharq bo‘limida 1920-9-17-013 raqami bilan saqlanayotgan “Sher Muhammad portreti” ana shunday asarlaridan biridir. Bu asarning o‘lchami 10 x 16,7 bo‘lib, rassom Sher Muhammadni yon tomondan mohirona tasvirilagan. U soqoliga oq oralagan, sharf taqqan, yaktak ustidan uzun yo‘l-yo‘l xalat (astarsiz chopon) kiygan holatda tasvirlangan. Bunday yozlik choponlarni XVI-XVII asrlarda O‘rtta Osiyoda kiyishgan, bu bilan rassom islom dinining vakilini ko‘rsatmoqchi bo‘lgan.

Muhammad Nodir ijodining o‘ziga xos xarakterli tomoni shundan iborat-ki, u aksariyat asarlarini naturadan ishlagan. Uning “Bakir Azimxon Savoyi porteti”, “Izzatxon portreti”, “Xalil Olloh Xon portreti”, “Shahzoda Xishrav portreti”, ”Shoh Akbarning o‘g‘li Doniyor portreti”, ”Shoir portreti”, ”Savdogar Malikning Yusufni quduqdan chiqarib olishi” (“Yusuf va Zulayho” asariga ishlangan miniatyura) kabi asarlari Buyuk Britaniya muzeyida, Parij, Sankt-Peterburg va dunyoning boshqa muzeylarida saqlanmoqda. Ma’lumki, Movarounnahrda nom chiqargan ko‘pgina rassomlar Bobur davridayoq Hindistonga taklif etilib, ularning ijod qilishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Farruh Bek Qalmiq, Davlat Muhammad, Muhammad Murod Samarcandiy va Muhammad Nodir Samarcandiylar har xil muddatlarda (ba’zilari umri davomida) Boburiylarga xizmat qilgan bo‘lsalarda, ularning ijodida SHarq miniatyura maktabi asoslari yaqqol ko‘rinib turadi.

Hindistonning ko‘pgina hududlarida bo‘lib o‘lmas asarlar yaratgan Muhammad Nodir Samarcandiy ijodi Evropa san’atshunoslarining diqqatini ham tortgan va rassom ijodi haqida simpoziumlar, konferensiyalar o‘tkazilgan, ko‘pgina ilmiy maqolalar G‘arb nashriyotlarida chop etilgan.

Hindiston miniatyura maktabining shakllanishiga katta hissa qo‘shgan Muhammad Nodir Samarcandiy 1650 yilda, 80 yoshida Hindistonda vafot etgan. U yaratgan asarlar tasviriy san’at olamining xazinasi bo‘lib qoldi.

**Miniatyurachi musavvir Mir Said Ali Termizi**- XVI asrda Markaziy Osiyoda yashab ijod qilgan musavvir va shoir Mir Said Ali xaqida so‘z borganda, aksariyat tadqiqotlarda Eron, Hindiston, Afg‘oniston hamda Ozarboyjon miniatyura san’ati rivojiga salmokli hissa ko‘shgan buyuk ijodkor sifatida qayd etiladi. Chindan ham, mashhur rassom hayotining asosiy qismi Badaxshon, Tabriz, Qobul va Shimoliy Hindiston hududlarida kechgan. Ammo shu o‘rinda bir jihat e’tiborimizni tortadi, ya’ni shu kunga qadar o‘rganilgan aksariyat manbalarda musavvirning tug‘ilgan joyi, tasviriy san’at sohasida kimdan tahsil olgani borasida aniq ma’lumot mavjud emas. Buni xorij tadqiqotchilarining uzoq yillar davomida Mir Said Ali zamonida yozib qoldirilgan qo‘lyozmalarga duch kelishmagani oqibati deb izohlash mumkin.

Shuni mammuniyat bilan aytish mumkinki, bugun ulug‘ musavvir haqida ma’lumot beruvchi bunday manba, ya’ni "Nafois ul-maosir" ("Yaxshi amallar fazilatlari") tazkirasingning uchta forsiy asliyat va bitta o‘zbekcha tarjima qo‘lyozmasi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.

Musavvirning zamondoshi Alouddavla ibn Yahyo as-Safiy al-Husayniyning "Nafois ul-maosir" ("Yaxshi amallar fazilatlari") tazkirasi Hindistonda Zahiriiddin Muhammad Boburning nevarasi Jaloliddin Akbar xukmronligi davrida yozilgan. Ushbu tazkiranadagi ma’lumotlarga e’tibor berilsa, bo‘lajak musavvir Tabriz yoki Hindiston rassomlaridan tahsil olmagan, balki Termizda yashab ijod qilgan, Mir

Musavvir (musavvirlar amiri degan yuksak unvon) nomi bilan shuhrat qozongan o‘z otasi, mashxur musavvir Mir Mansurdan saboq olgani qayd etilgan. Akbarshohning vaziri Abul Fazl o‘zining "Akbarnoma" kitobida Mir Said Alini maqtab: "U bu san’atni otasidan o‘rgandi. U bu saroyga kelganidan boshlab, podshohning mehr quyoshi panohida bo‘ldi. U san’ati bilan o‘zini mashhur qildi" deb yozgan. Muallif Mir Said Alini Tabrizdan kelganini aytib, saroyda yig‘ilgan bir yuz ellikka yaqin musavvir ichida birinchi o‘ringa qo‘yadi. Qozi Ahmad 1597 yilda yozgan "Hattotlar va musavvirlar haqida hikoyatlar" risolasida bu xususda shunday degan: "Ota va o‘g‘il - har ikkalasi ham baxtsizlik holatiga tushib qolgan edilar va shunga ko‘ra Hindistonga safar etdilar".

Mir Said Ali va uning otasi Mir Musavvir Hindistonga ko‘chib borguncha hayotning ko‘p sinovlarini engib o‘tishgan. Mir Said Ali o‘smirlilik chog‘ida Shayboniyxon bosqini tufayli ona shahri Termizdan bosh olib ketishga majbur bo‘ladi. Keyinchalik mashhur musavvir Behzod Hirotdan Tabrizga ketib, safaviylar saroyida kutubxona mudiri, Nigoriston rahbari etib tayinlanganini eshitgach, uning xuzuriga oshiqishadi. Mir Said Ali Eron shohi Tuxmamishdan tashqari, Boburiy hukmdorlar saroyida ijod qilgan va shu davrda tasviriy san’at sohasida eng yuksak natijalarga erishib, "Nodir ul zamon" unvoniga ega bo‘lgan.

Shu ma’noda aytish mumkinki, Mir Said Ali islom madaniyati rivojiga hissa qo‘sghan rassomlar qatoridan o‘rin olishga erishdi. Aynan shu tufayli ham uning ijodi bir xalq hayotini tasvirlash bilan cheklanmagan. Buni Nizomiy, Firdavsiy dostonlari, qadimiy rivoyatlar real syujetlar asosida yaratgan asarlari misolida ham ko‘rish mumkin. Bu jihatdan Mir Said Ali buyuk Behzod ishini davom ettirgan. Uning Temuriylar xonadoni a’zolariga bag‘ishlangan miniatyuralari bugungi kunda Buyuk Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Bu asarlar Temuriy va Boburiylar sultanatining mashhur kishilari portretlari aks etgani uchun ham nihoyatda qadrlidir. Akbarshoh saroyi a’yonlari va mashhur kishilarining rasmi chizilgan katta to‘plam yaratishga ham Mir Said Ali Termiziy bosh-qosh bo‘ldi. Termizlik ijodkor harbiy yurishlar, jang va ov manzaralari, turli tarixiy voqeа-hodisalarini aks ettirishga jiddiy e’tibor qaratdi. Olim Ilyos Nizomiddinovning fikricha, "Temuriylar xonadoni" asarida daraxt ostidagi ko‘shkda Akbar va Humoyun, pastda SHohruh, Abu Said Mirzo, Sulton Muhammad, Mironshoh, Umarshayx va Bobur tasvirlangan. Keyinchalik boshqa bir musavvir tomonidan Jahongir va Shoh Jahonlar tasviri ham aks ettirilgan.

Mir Said Alining xalqaro miqyosdagi ijodi bugungi kun rassomi uchun ham ibratlidir. Hind tarixchi-olimi L.Sharmaning "Boburiy sultanati" asarida aytilishicha, Mir Said Ali devoriy suratlar chizishning ham mohir ustasi bo‘lib, Agra, Dehli, Fathpur shaharlaridagi bir qancha devoriy suratlar chizishda bevosa ishtirot etgan.

Shohning vaziri va uning tarjimai holi — "Oynai Akbariy" muallifi Abul Fazlning yozishicha, Akbar saroyida Mir Said Ali Termiziy va Abdusamatlardan tahsil olgan

turli millatlarga mansub 145 nafar rassom ishlagan. Dasvant, Basavan, La'l, Ustod Mansur, Kesu, Mukund, Davlat, Miskin, Farruxbek, Madxu, Jogenath, Mohish, Hamroxon, Tara Chand, Samval Das kabi mashxur musavvirlar shular jumlasidandir.

Shuncha ma'lumotlar bo'lishiga qaramay, ayrim san'atshunoslar "Mir Said Ali bizning rassom emas, asarlari Tabriz maktabiga tegishli," deb avvalgi tadqiqotlardagi dalillarni ro'kach qilishi to'g'ri emas. Biz yurtimizda tug'ilmagan bo'lsa-da, jahon madaniyatiga munosib hissa qo'shgan siy whole larga ehtirom ko'rsatib kelamiz va buni tabiiy bir hol sifatida qabul qilamiz. Ammo o'z yurtimizda tug'ilgan Mir Said Alini ba'zi san'atshunoslar aytganidek, bizga hech qanday taalluqli joyi yo'q demasligimiz kerak.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'zbek tasviriy san'atida uning asarlaridan ilhomlanib ijod qilgan miniatyurachi rassomlarimiz talaygina. Bu o'rinda Telman Muhammedov va Niyoziy Xolmatov kabi taniqli rassomlar ijodini ko'rsatish mumkin. Darhaqiqat, Mir Said Ali xuddi Behzod singari turli mamlakatlarda ijod qildi. Behzodni bugungi kunda Eron va Afg'oniston ham o'z rassomlari deb biladi. Mir Said Ali ham Termizda tug'ilib, Badaxshon, Tabriz, Qobul va SHimoliy Hindistonda Temuriylar, Safaviylar, Boburiylar hukmronligi davrida yashadi va ijod qildi. Uning rang-barang ijodi ma'naviy meros sifatida Sharq xalqlari, jumladan O'zbekiston uchun ham birday ardoqli va qadrli.

2013 yili ulug' vatandoshimiz tavalludiga 500 yil to'ladi. Hindistonda, Akbarshoh zamonida "Nodir-ul Mulk" (Davlatning nodir siyoshi) deb nom olgan bu rassom maqomi va ijodi ko'lami o'z zamondoshlari hamda xorijlik mutaxassislar e'tiroficha, buyuk Kamoliddin Behzoddan kam emas. Uning ijodi mashhur hind, ingliz, eron, ozarboyjon olimlari tomonidan keng o'rganilib, tahlil etilgan.

Jumladan, rassomning zamondoshlari, tazkiranavis Alouddavla ibn YAhe as-Safiy al-Husayniy, Qozi Ahmad, fors tarixchisi Do'st Muxammad, Sodiqi Kitobdor, Akbarshohning vaziri Abul Fazl, ozar olimlari A.YU.Kaziev, K.D.Kerimov, ingliz san'atshunosi Persi Broun, o'zbek olimlari I.Nizomiddinov, O.Usmonov, J.Mirzolar o'z baholarini berishgan.

Mir Said Ali merosining bir qismi — oltmishta asari Avstriyaning Vena shahridagi "Indastrel" muzevida va yigirma beshta asari Janubiy Kensingtondag'i "Viktoriya va Alber" kabi muzeylarda, shuningdek jahonga mashhur ko'plab galereyalarda saqlanmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Sh.Shoyoqubov.O'zbekistonning bugungi miniatyura rangtasviri Musavvir.Toshkent,1994
2. “Jannat Makon” jurnali, 2009 yil, iyul soni.
3. R.Hasanov, “Tasviriy san'at asoslari”, Toshkent, 2009 -yil.
4. “O'zbekiston adabiyoti va san'ati “ ro'znomasi, 2015- yil
5. Z.Gulyamova, R.O'rolov, K.Suvanova “O'zbekiston tasviriy san'at ustalari”. Sam VPXQTMOI , 2015(uslubiy ko'rsatma)
6. B.Boymetov.Qalamtasvir.Toshkenr-“ILMZIYO”-2007